

**“O‘ZAVTOSANOAT” AJning**  
(tarmoq korxonalarining yig‘ma  
ko‘rsatkichlari bilan)

**2023 yil uchun**  
**BIZNES-REJASI**

**Toshkent – 2023**

## **MUNDARIJA**

### **I. Jamiyat va tarmoq to'g'risida umumiy ma'lumot.**

1.1 Jamiyat bo'yicha umumiy ma'lumot.

1.2 Jamiyatning qisqacha tarixi va joriy yilda erishilgan yutuqlari.

1.3 Jamiyatning tashkiliy va ijro etuvchi apparati boshqaruvi tuzilmasi, tarmoq korxonalarini to'g'risida qisqacha ma'lumot.

1.4 Kadrlar siyosati, yangi ish o'rinlarni yaratish, xodimlarni o'qitish va malakasini oshirish.

### **II. Jamiyat va uning korxonalarini islox qilish.**

2.1 Istiqbolli rivojlanish strategiyasi.

2.2 Isloh qilishning 2023 yil uchun rejasi.

### **III. Bozor va marketing rejasi.**

3.1 Ichki bozor faoliyati.

3.2 Eksport bozorlaridagi faoliyati.

### **IV. Ko'rsatkichlar**

### **V. Samaradorlik ko'rsatkichlari**

“O‘zavtosanoat” AJning 2023 yilga mo‘ljallangan biznes-rejasi boshqaruv apparatining hamda tarmoq korxonalarining umumlashtirilgan prognoz ko‘rsatkichlari bo‘yicha shakllantirilgan. Bunda tarmoq korxonalarining asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha - ishlab chiqarish, mahsulot sotish, jumladan eksport, investitsiya faoliyati, mahsulot ishlab chiqarish tannarxini qisqartirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda moliya-xo‘jalik faoliyati ask ettirilgan.

## **I. Jamiyat va tarmoq to‘g‘risida umumiy ma‘lumot.**

### **1.1 Jamiyat bo‘yicha umumiy ma‘lumot.**

“O‘zavtosanoat” aksiyadorlik jamiyati.

Tarmoq: Avtomobil sanoati.

2023 yilning 1 aprel holatiga “O‘zavtosanoat” aksiyadorlik jamiyatining ustav fondi 1 858,7 mlrd. so‘mni tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi 100 foizlik paket aksiya bilan jamiyatning yagona aksiyadori hisoblanadi.

Yuridik manzili: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shaxri, Mirobod tumani, Amir Temur ko‘chasi, 13.

STIR: 201053918

Jamiyat tashkiliy tuzilmasi bo‘yicha boshqaruv xodimlarining umumiy soni – 100 birlik (ichki audit xizmatidan tashqari).

### **1.2 Jamiyatning qisqacha tarixi va joriy yilda erishilgan yutuqlari.**

1994 yil may oyida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan “O‘zavtosanoat” O‘zbek avtomobilsozlik korxonalari assotsiatsiyasi tashkil etilgan, 2004 yilda “O‘zavtosanoat” assotsiatsiyasi ishlab chiqarish boshqaruvi samaradorligini oshirish maqsadida aksiyadorlik kompaniyaga aylantirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 iyundagi “2017-2021 yillarda avtomobil sanoatini jadal rivojlantirish va boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3028-sonli qaroriga asosan “O‘zavtosanoat” aksiyadorlik jamiyatining (keyingi tahrirlarda jamiyat deb yuritiladi) tashkiliy-huquqiy tuzilishi aksiyadorlik kompaniyasidan aksiyadorlik jamiyatiga o‘zgartirilgan.

Bugungi kunda sohada “O‘zavtosanoat” aksiyadorlik jamiyati doirasida birlashtirilgan va bevosita 30 mingdan ortiq ishchi o‘rniga ega 55 dan ortiq tarmoq korxonalari va tashkilotlar faoliyat ko‘rsatmoqda, 200 dan ortiq chet el korxonalari bilan hamkorlik aloqalari o‘rnatilgan. “O‘zavtosanoat” AJ o‘nlab katta va o‘rta korxonalar bilan bir qatorda Koreya respublikasi, Italiya, Germaniya, Yaponiya kabi xorijiy mamlakatlar kapitali bilan birgalikda tashkil etilgan kompaniyalarni birlashtiradi.

Nufuzli kompaniyalar bilan teng va o‘zaro manfaatli munosabatlarni o‘rnatishga asoslangan ilgari odimlash strategiyasi raqobatbardosh mahsulotlarni dunyo standartlari darajasida ishlab chiqarishga qaratilgan.

Hozirgi kunda avtomobil sanoati respublika iqtisodiyotida jadal rivojlanayotgan tarmoqlardan biri hisoblanadi.

### **2022 yil va 2023 yil I choragida erishilgan yutuqlar.**

2022 yil yanvar - O‘zbekiston Respublikasi Mahalliy ishlab chiqaruvchi va iste’molchilarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida “O‘zavtosanoat” AJ tarkibida “Avtosanoat Agro Lizing” MCHJ lizing tashkiloti o‘z faoliyatini boshladi.

2022 yil fevral - Qozog‘iston Respublikasi Bosh vaziri Alixon Smailovning O‘zbekistonga rasmiy tashrifi doirasida UzAuto va “Allur Group” AJ (Qozog‘iston) o‘rtasida Toshkentda yangi multibrendli avtomobil kompleksi va avtomobil online-marketplace (savdo maydonchasi) tashkil etish haqida hamkorlik shartnomasi imzolandi.

UzAuto Xitoyning elektromobillar ishlab chiqaruvchi yirik kompaniyasi BYD Auto Industry bilan hamkorlik qilish to‘g‘risida kelishib oldi.

2022 yil mart - “UzAuto Motors” kompaniyasi avtomobilga kontraktatsiyani yangiladi.

2022 yil aprel - “UzAuto Motors” kompaniyasi ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini oshirdi, birinchi chorakda Asaka va Xorazmdagi zavodida 68 905 dona avtomobil ishlab chiqarildi.

2022 yil aprel - “UzAuto Motors” kompaniyasi bozor imkoniyatlarini kengaytirib, Livanga Chevrolet Spark avtomobillarining birinchi partiyasini yubordi.

2022 yil aprel - “UzAuto Motors” kompaniyasi Asaka shahridagi zavodida test sinov tariqasida 16 dona yangi “Tracker-2” “Non-Saleble” avtomobillarini ishlab chiqardi.

2022 yil may - “UzAuto Motors” kompaniyasi yil boshidan buyon 108 300 dan ortiq avtomobilni o‘z egalariga topshirdi.

2022 yil may - “UzAuto Motors” kompaniyasi Milliy marketing markazi tomonidan tashkil etilgan “Yil brendi” tanlovining “Transport” yo‘nalishida online ovoz berish jarayonida g‘oliblikni qo‘lga kiritdi.

2022 yil iyun - Toshkentdagi “Control Auto” premium xizmat ko‘rsatish markazi negizida Škoda va Volkswagen brendlarining rasmiy dilerlik markazi ochildi.

2022 yil iyun - UzAuto Xitoylik BYD kompaniyasi bilan birgalikda avtomobillarning doimiy xaridorlari tomonidan yangi energiya manbalari haqidagi tasavvurni o‘rganish bo‘yicha “Car Clinic” tadqiqotini boshladi.

2022 yil iyun - “O‘zavtosanoat” AJ tuzilmaviy korxonasi Namanganda avtomobil faralarini ishlab chiqaruvchi “UzChasys” kompaniyasi Fransiyaning

Stellantis kompaniyasiga qarashli Peugeot Partner avtomobillariga faralar yetkazib berishni boshladi.

2022 yil iyul - “UzAuto Motors” kompaniyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti topshirig‘ini bajarib, 2022-yilning birinchi yarim yilligida 160 100 dona avtomobil ishlab chiqardi.

2022 yil iyul - “Avtooyuna” mustahkam va xavfsiz bo‘lgan qoraytirilgan oynalarni ishlab chiqarishni boshladi.

2022 yil iyul - Jizzakh Auto kompaniyasi Jizzax shahridagi Monomarkaz bilan memorandum imzoladi.

2022 yil iyul - “UzAuto Motors” AJ Asaka shahridagi zavodida Chevrolet Tracker-2023 avtomobilini ishlab chiqarishni boshladi.

2022 yil iyul - Qozog‘iston avtomobil biznesi uyushmasi 2022-yilning iyun oyidagi ma‘lumotiga ko‘ra, Qozog‘istondagi yengil avtomobillarning yetakchi brendlari orasida Chevrolet yetakchi o‘rinni egalladi.

2022 yil iyul - “UzAuto Motors” AJ Asaka zavodida Chevrolet Onix avtomobilini seriyali ishlab chiqarilishdan oldin, PPV (Pre-Production Vehicle) bosqichida birinchi Onix avtomobili yig‘ildi.

2022 yil avgust - UzAuto Motors yengil avtomobil ishlab chiqarish bo‘yicha MDH davlatlar orasida yetakchi o‘rinni egalladi.

2022 yil avgust - Chevrolet Tracker avtomobili sotuvi boshlandi va bir kunda 7 471 dona Chevrolet Tracker uchun shartnoma tuzildi.

2022 yil avgust - Janubiy Koreaning avtomobil sanoati yetakchi kolledji Ajou Motor va TTPU o‘rtasida hamkorlik kelishuvi imzolandi.

2022 yil sentyabr - O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan Chevrolet Tracker o‘z egalariga topshirildi.

2022 yil sentyabr - “UzAuto Motors” malakali kadrlarni tanlov asosida ishga qabul qildi.

2022 yil sentyabr - Prezident farmoniga ko‘ra “UzAuto Motors” kompaniyasining xodimlari Qambarov Nomonjon Mamajonovich “Mehnat shuhrati” ordeni bilan hamda Jalilov Dilmurod Sotvoldiyevich “Shuhrat” medali bilan taqdirlandi.

2022 yil oktyabr - “UzAuto Motors” AJ ACCA Approved Employer maqomini oldi va hamkoriga aylandi.

2022 yil oktyabr - “UzAuto Motors” AJ ilk IPO‘siga start berildi.

2022 yil oktyabr - “UzAuto Motors” avtozavodiga ochiq tanlov asosida 2 000 nafardan ortiq kadr ishga qabul qilindi.

2022 yil oktyabr - General Motors International kompaniyasi bilan 2023 yilda ishlab chiqarish quvvatini 500 ming donaga yetkazish bo‘yicha kelishuvga erishildi.

2022 yil oktyabr - “Olamavto” majmuasi va Trade-in markazi ochildi.

2022 yil oktyabr - UzAuto va Qozog‘istonning Allur kompaniyasi Allur avtomobil zavodi quvvatlarida Chevrolet Onix avtomobilini kichik uzelli (CKD) usulida yig‘ish bo‘yicha hamkorlik shartnomasini imzoladi.

2022 yil noyabr - “DaVinci mukofoti - 2022” tanlovida “UzAuto Motors” davlat kompaniyalari orasida “Ish izlovchilar orasida eng talabgir ish beruvchi” nominatsiyasiga sazovor bo‘ldi.

2022 yil noyabr - Italiyaning CIM 4.0. texnologiyalarini uzatish va vakolatlarni tarqatish markazi vakillarining bilan mamlakatda “UzAuto kompetensiya markazi”ni tashkil etish bo‘yicha hamkorlik bitimini imzolandi.

2022 yil noyabr – “UzAuto Motors” tarixiy ishlab chiqarish rekordini yangiladi - 280 ming dona avtomobil ishlab chiqarildi.

2022 yil noyabr - “Avtooyna” MCHJ tarixda birinchi marotaba avtomobil oynalarini ishlab chiqarish bo‘yicha rekord darajani (38 ming komplekt) ko‘rsatdi.

2022 yil noyabr – “UzAuto Motors” to‘rt millioninchi avtomobilini ishlab chiqardi.

2022 yil noyabr - UzAuto qishloq xo‘jaligi texnikasini ishlab chiqaruvchi dunyodagi eng yirik kompaniya John Deer bilan hamkorlik to‘g‘risidagi bitimni imzoladi.

2022 yil dekabr - BYD va “O‘zavtosanoat” AJ yangi energiya manbaalarida xarakterlanuvchi avtomobillar ishlab chiqarish bo‘yicha Qo‘shma Korxonada tashkil qilish kelishuvini imzoladi.

2022 yil dekabr - UzAuto O‘zbekiston va Qozog‘iston mintaqalararo biznes forumi doirasida 570 million AQSH dollarlik sarmoyaviy va savdo-iqtisodiy shartnomalar imzoladi.

2022 yil dekabr - “UzAuto Motors” AJning kredit reytingi B+ (Barqaror kutilma)dan BB- (Barqaror kutilma)ga ko‘tarildi.

2022 yil dekabr – “UzAuto Motors Powertrain” zavodida CSS Prime Turbo dvigatellarni ishlab chiqarish boshlandi.

2022 yil dekabr - O‘zbekistonda John Deer qishloq xo‘jaligi texnikasi sotuvi boshlandi.

2022 yil dekabr – “UzAuto Motors” “Allur Auto” kompaniyasi bilan Qozog‘istonda Chevrolet Onix avtomobillarini ishlab chiqarish bo‘yicha shartnoma imzoladi.

2023 yil yanvar - Andijon viloyatining “Mashinasozlik va elektrotexnika maxsus sanoat xabi” maxsus sanoat zonasida MDH hududida yagona o‘ziga xos bo‘lgan zamonaviy “Kova Foundry” quyuv zavodining ochilishi bo‘lib o‘tdi.

2023 yil yanvar - UzAuto Qirg‘izistonlik hamkorlar bilan birgalikda tijorat texnikalari va yengil avtomobillar ishlab chiqarish bo‘yicha shartnoma imzoladi.

2023 yil yanvar - “Volkswagen Caddy” tez tibbiy yordam avtomashinalari Sogʻliqni saqlash vazirligiga topshirildi.

2023 yil fevral – “UzAuto Motors” zavodida Chevrolet Onix avtomobillarni ishlab chiqarilishi boshlandi.

2023 yil fevral - Chevrolet Malibu XL avtomobili sotuvi boshlandi.

2023 yil fevral - Oʻzbekiston fond bozori tarixidagi aksiyalarning umumiy qiymati boʻyicha eng yirik IPO yakunlandi.

2023 yil mart – “UzAuto Motors” kompaniyasi “Uzum Market” marketpleysining rasmiy hamkoriga aylandi.

2023 yil mart - Oʻzbekistonda BYD avtomobillarining rasmiy sotuvi boshlandi.

2023 yil mart - Oʻzbekistonda ishlab chiqarilgan birinchi Chevrolet Onix birinchi egalariga topshirilishi boshlandi.

### **1.3 Jamiyatning tashkiliy va ijro etuvchi apparati boshqaruvi tuzilmasi, tarmoq korxonalari toʻgʻrisida qisqacha maʼlumot.**

Jamiyatning tashkiliy tuzilmasi (sxema) va ijro etuvchi apparati boshqaruvi tuzilmasi (sxema) 1 va 2 ilovalarda taqdim etilgan.

#### **Jamiyat faoliyatining tuzilmasi.**

##### **Ishlab chiqarish yoʻnalishida.**

“Uzavto Motors” AJ – yengil avtomobillar.

“SamAvto” MCHJ QK – ISUZU turdagi yuk avtomobillari va avtobuslar.

“Uzavto Motors Powertrain” AJ – kuch agregatlari.

Mahalliyashtirish korxonalari – avtokomponentlar.

Boshqa turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish korxonalari.

##### **Yengil avtomobillarning savdosi va ularga texnik xizmat koʻrsatish yoʻnalishida.**

Tashqi bozorlar: MDX davlatlarida 4 ta distribyutor hamda 35 ta diler Chevrolet brendi ostida faoliyat koʻrsatmoqda.

Ichki bozorlarda “Uzavto Motors” AJning 93 ta faol dillerlik markazlari oʻz faoliyatini olib bormoqda (shulardan, 71 ta diller engil avtomobillar sotadi, ulardan 20 ta diller texnik xizmat koʻrsatish stansiyalariga ega emas). Dillerlik markazlarining eng koʻp qismi Toshkent shahrida 21 ta, Toshkent viloyatida 14 ta hamda Fargʻona viloyatida 11 ta dillerlik markazlari joylashgan.

##### **Jamiyat boshqarish kompaniyalari.**

“Avtosanoat Invest” MCHJ, “UzAutoComponents” MCHJ, “Uzauto Passenger Vehicles Management” MCHJ hamda “Uzauto Commercial Vehicles Management” MCHJ.



## **Kadrlar tayyorlash yo‘nalishida.**

Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti.

Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti qoshidagi Akademik litsey.

### **1.4 Kadrlar siyosati, yangi ish o‘rinlarni yaratish, xodimlarni o‘qitish va malakasini oshirish.**

Jamiyat rejalashtirayotgan strategik maqsadlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy mezonlaridan biri - bu mutaxassislarni tayyorlash uchun ajralmas va muntazam tizimni yaratishdir, bunda asosiy o‘rinda tizim korxonalarini muhandis-texniklar, moliyachi-iqtisodchilar va biznesni boshqarish yo‘nalishidagi malakali mutaxassislar bilan ta‘minlash dolzarb o‘rin egallaydi.

Soha uchun malakali kadrlar tayyorlash tizimidagi eng muhim bo‘g‘in Toshkentdagi Turin politexnika universiteti hisoblanadi va bugungi kunda Universitet tomonidan jamiyat hamda tizim korxonalari uchun avtomobilsozlik sanoatining o‘ziga xos muxandislik, dizayn salohiyatini yaratish va rivojlantirishda asosiy bo‘g‘inga aylanmoqda.

“O‘zavtosanoat” AJ tarkibiga kiruvchi tarmoq korxonalarida kadrlar malakasini ta‘minlashning asosiy yo‘nalishi kadrlar zaxirasini yaratish, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini yaratish hisoblanib, bunga quyidagilar kiradi:

1. Xodimlarni tayyorlash - umumiy va maxsus bilimlar darajasini oshirish, mutaxassislik bo‘yicha amaliy ish tajribasini oshirish;
2. Maxsus dasturlar bo‘yicha o‘quv markazlarida o‘qitish orqali malaka va kasbiy mahorat darajasini oshirish;
3. Ishchilar va mutaxassislarni joylashtirishni ratsionalizatsiya qilish;
4. Soha uchun kadrlar zaxirasini yaratish va yangilab borish.

Shu bilan birga, 2023 yilda tarmoq korxonalarida jami 2 000 yangi ish o‘rinlarni yaratish rejalashtirilmoqda.

### **“O‘zavtosanoat” AJning boshqaruv organi to‘g‘risida ma‘lumot**

<b>№</b>	<b>F.I.SH</b>	<b>Lovozimi (ish joyi), faoliyat ko‘rsatish davri</b>	<b>Korxonadagi ulushi</b>
<b>I. Aksiyadorlar (ishtirokchi, mulkdor)</b>			
1.	Aksiyador (ishtirokchi, mulkdor)		O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi – 100 foiz



<b>II. Kuzatuv kengashi a'zolari</b>			
2.1	Jumanazarov Ruzikulovich	Akmal	O'zbekiston Respublikasi Energetika vaziri o'rinbosari;
2.2	Raxmatov Kasimovich	Feruz	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi mahaliy sanoat va kooperatsiyani rivojlantirish sho'basini mudiri;
2.3	Saidov Zafar Zoirovich		O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vaziri kotibiyati boshlig'i;
2.4	Atadjanov Bekbergenovich	Murod	Iqtisodiyot va moliya vazirligi G'aznachiligi boshlig'ining birinchi o'rinbosari;
2.5	Bo Inge Andersson		"UzAuto Motors" AJ bosh direktori;
2.6	Sharik Xan		Mustaqil a'zo;
2.7	Andreas Edinger		Mustaqil a'zo
<b>III. Ijro organi</b>			
1.	Rozukulov Ubaydullayevich	Ulugbek	"O'zavtosanoat" aksiyadorlik jamiyati boshqaruv raisi;
2.	Shukurov Kobilovich	Azizbek	Boshqaruv raisining transformatsiya va moliya masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari;
3.	Rafikov Vohidovich	Abduvaqqos	Mahalliy lashtirish, kooperatsiya aloqalarini sanoatda kengaytirish va axborot texnologiyalari masalalari bo'yicha boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari;
4.	Tadjiyev Ubaydullayevich	Sardor	Boshqaruv raisining sotuvni rivojlantirish va marketing bo'yicha o'rinbosari;
5.	Turayev Razakovich	Farxod	Boshqaruv raisining ishlab chiqarish masalalari bo'yicha o'rinbosari;
6.	Bikkulov Anvarovich	Rinat	Boshqaruv raisining kadr va rejim masalalari bo'yicha o'rinbosari

## **II. Jamiyat va uning korxonalarini islox qilish.**

### **2.1 Istiqbolli rivojlanish strategiyasi.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4397 sonli “O‘zbekiston Respublikasi avtomobil sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi qaroriga muvofiq 2020 yilda “O‘zavtosanoat” AJ hamda Boston Consulting Group halqaro konsalting kompaniyasi tomonidan 2030 yilgacha bo‘lgan davr uchun avtomobil sanoati strategiyasi ishlab chiqildi.

Ishlab chiqilgan strategiyaga ko‘ra quyidagi ishlar amalga oshirilishi rejalashtirilgan:

1. Avtomobil sanoatida faoliyat ko‘rsatayotgan yoki faoliyatini boshlamoqchi bo‘lgan kompaniyalarga teng shart-sharoitlarni yaratish;

2. O‘zbekiston Respublikasining avtomobil sanoatini boshqarish modelini isloh qilish (transformatsiya) va avtomobil sanoati tizimdagi korhonalarda davlat ishtirokini (ulushini) qisqartirish;

3. Yangi ishlab chiqaruvchi kompaniyalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va O‘zbekiston xududida ishlab chiqarishni tashkil etish;

4. Yangi avtomobil modellarini ishlab chiqarishni tashkil etish va bozorga olib chiqish;

5. Elektromobillarni ishlab chiqarishga bosqichma-bosqich tayorgarlik ko‘rish;

6. Ishlab chiqarish aktivlarini (korxonalarni) optimallashtirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish.

Shu bilan birga, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga muvofiq quyidagi ishlar amalga oshirilishi belgilangan:

- avtomobil sanoatida ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga, eksport hajmini 2 baravarga ko‘paytirish;

- avtomobillar mahalliyashtirish darajasini oshirish;

- Chirichiqda qishloq xo‘jaligi mashinasozligi ishlab chiqarishini yagona sanoat klasteri usulida tashkil etish;

- elektromobillar ishlab chiqarish va ulardan foydalanish choralarini ko‘rish.

### **2.2 Isloh qilishning 2023 yil uchun rejasi.**

“Yangi avtomobil modellarini ishlab chiqarishni tashkil etish”. Loyiha “GEM”ning yangi birlashgan global platformasiga o‘tish orqali “Uzauto Motors” AJ da yangi avtomobillar modellarini (Onix) o‘zlashtirish.

“Uzavto Motors” AJ va mahalliyashtirish korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlarini 500 ming dona avtomobil (to‘plam)gacha yetkazish bo‘yicha amaliy ishlarni davom ettirish.

“O‘zavtosanoat” AJ korxonalari faoliyati samaradorligini oshirish, ularni moliyaviy holatini barqarorlashtirish va yanada yaxshilash.

Xom-ashyoning muqobil yetkazib beruvchilarini izlash va “O‘zavtosanoat” AJ tarmoq korxonalarining import qilinadigan xomashyoni sotib olish uchun xarajatlarini optimallashtirish.

Qishloq xo‘jaligi mashinasozlik korxonalarini Chirchiq shahriga ko‘chirish va yaxlit qishloq xo‘jaligi mashinasozligi klasterini tashkil qilish ishlarini yakunlash. Bunda, zavodlar asbob-uskunalarini “Chirchiq klaster”ga ko‘chirib, qurilish-montaj ishlarini to‘liq yakunlash va 2023 yildan to‘liq ishlashini ta‘minlash.

“Milliy traktor” ishlab chiqarish loyihasini amalga oshirishni davom ettirish va 2023 yilda ommaviy ishlab chiqarishni boshlash.

Avtomobillar va qishloq xo‘jaligi texnikalari ishlab chiqarish geografiyasini kengaytirish hamda eksport hajmini oshirish maqsadida, jamiyat tomonidan ishlab chiqariladigan avtomobillar va texnikalarni qo‘shni davlatlarda SKD va CKD texnologiyasi asosida ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish bo‘yicha ishlarni davom etish.

Yangi energiya manbaalarida xarakatlanuvchi avtomobillarni savdosini boshlash va xamkor bilan to‘liq siklda ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish bo‘yicha ishlarni jadallashtirish.

Joriy modellarning maxalliyashtirish darajasini oshirish bo‘yicha boshlangan ishlarni davom ettirib, oxiriga yetkazish, yangi modellarni butlovchi qismlarini maxalliy korxonalarda o‘z vaqtida, grafiklari asosida ishlab chiqarish bo‘yicha ishlarni tashkillashtirish.

Barpo etilgan Sanoat Xabida, yangi butlovchi qismlar ishlab chiqaruvchi korxonalarini joylashtirish bo‘yicha ishlarni davom ettirish, loyihalarni amalga oshirish.

“Uzauto akademiya” va “Uzauto Motors” AJ huzurida “Benchmarking markaz”larini tashkil etish va faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ishlarni davom ettirish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 6 iyuldagi 307-son qarori bilan 2023 yilda bajarilishi belgilangan innovatsion loyihalarni kompaniya tizim korxonalarini tomonidan amalga oshirish.

Quyosh panelari o‘rnatish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni davom ettirish. Jumladan jamiyat tarkibiga kiruvchi 5 ta yirik korxonalarida quyosh panellarini o‘rnatish ishlari boshlangan:

- Chirchiq shahrida “TTZ” MCHJ zavodida – 1 000 kVt;
- Asaka shahrida “UzAuto Motors” AJ zavodida – 3 000 kVt;
- Pitnak shahrida “UzAuto Motors” AJ zavodida – 2 500 kVt;

- Andijon shahrida “Auto Spring Components” MCHJ korxonasi – 1 500 kVt;

- Toshkent shahrida “UzAuto Motors Powertrain” AJ korxonasi – 1 000 kVt hajmdagi quyosh panellari jami 9 MegaVat (10 627 kVt) o‘rnatish rejalashtirilgan.

2023 yilning I choragi davomida 1 127 kVt hajmli quyosh panellari o‘rnatildi. Yil yakuniga qadar 7 873 kVt hajmdagi quyosh panellari o‘rnatilishi rajalashtirilgan. Natijada bir yil davomida o‘rtacha 7,2 mln. kVt elektr energiyasi iqtisod qilinishiga rejalashtirilgan.

### **Xususiylashtirish ishlari.**

2022 yilda xususiylashtirish maqsadida jami 91,8 mlrd. so‘mlik aktivlar sotildi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 18 martdagi PQ-168-son va boshqa qarorlariga asosan jami 38 ta aktiv (shulardan 32 ta aktiv korxonalarining ulushlari) keyinchalik sotish uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga o‘tkazildi.

Shu bois, O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga o‘tkazilgan 19 ta korxonalar 2023 yil 1 yanvardan tarmoq tarkibidan chiqarildi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator qarorlariga binoan “Uzauto Motors” AJning aksiya paketlari 2022 yil 3 avgustda Toshkent Respublika fond birjasining kotirovkalash varag‘iga (birja listingiga) kiritilgan va 2023 yil 15 fevralida “UzAuto Motors” AJning aksiya paketi ommaviy taklif orqali (IPO) joylashtirildi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 24 martdagi “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-102-son qaroriga muvofiq “O‘zavtosanoat” AJ va uning tizim korxonalariga tegishli 50 ta korxonalarining aksiya paketlari (ulushlari) va 1 ta mulkiy majmua ommaviy savdolar orqali to‘liqligicha sotilishi ko‘zda tutilgan.

## **III. Bozor va marketing rejasi.**

### **3.1 Ichki bozor faoliyati.**

“Uzavto Motors” AJ ichki bozorning dilerlik tarmog‘i faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha doimiy ish olib boradi.

Dilerlik tarmog‘ini rivojlantirish, dilerlik markazlarini optimallashtirish va dilerlik markazlari toifalarini ochish bo‘yicha yangi konsepsiya hamda talablarni tasdiqlangan. Dilerlik markazlari Chevrolet brendining D-2 standartiga mos ravishda qayta jixozlandi.

Dilerlik markazlari o‘rtasida raqobatni kuchaytirish, ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, ichki bozorda avtomobillarni sotish hajmini oshirish

maqsadida ularni hususiy investorlarga sotish orqali to'liq hususiy dilerlar sonini ko'paytirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

2023 yildan boshlab GEM platformasida yangi rusumli Onix avtomobili xaridorlarga yetkazish boshlandi. Xamda, Malibu, Equinox, Tahoe va Traverse rusumli avtomobillarni sotish hajmi ko'paytirish rejalashtirilgan. Shuningdek, 2023 yildan boshlab Chevrolet Malibu avtomobilini, yangi zamonaviy xavfsizlik uskunalari bilan jixozlangan, komplektatsiyasi sotuvi boshlangan.

**“SamAvto” MCHJ QK** mahsulotlarni ichki bozorda sotishni O'zbekiston Respublikasi bo'ylab joylashgan 35 ta dilerlik korxonalari amalga oshiradi.

Iste'molchilarni ehtiyojini ta'minlash maqsadida respublika hududida 3 ta hududiy omborlar faoliyat ko'rsatmoqda (Toshkent, Urganch va Farg'ona viloyatlarida), ular Isuzu (Yaponiya) tomonidan tavsiya etilgan tizim va maxsus javonlar bilan jihozlangan.

“SamAvto” MCHJ QK zavodida, Samarqand avtomobilsozlik kolledji hududidagi maxsus jihozlangan o'quv markazida va Samarqand shahridagi kasb-hunarga o'qitish markazida (markaz KOICA bilan hamkorlikda tashkil etilgan) “SamAvto” MCHJ QK mutaxassislari tomonidan dilerlik markazlari uchun kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish ishlari olib borilmoqda.

Xar yili vakolatli hizmat ko'rsatish stansiyalarining avtoullov mexaniklari o'rtasida texnik musobaqalar o'tkaziladi, uning davomida eng yaxshi texnik mutaxassislar aniqlanadi va avtoullovlarga texnik xizmat ko'rsatish sohasida tajriba almashiladi. Musobaqada ishtirok etgan g'oliblar Yaponiyada bo'lib o'tadigan xalqaro avtoullov mexaniklari tanlovida ishtirok etishlari mumkin.

Bundan tashqari, xaridorlarni jalb qilish uchun korxonalar turli hil tadbirlar va aksiyalar amalga oshiradi. Aksiyalarni amalga oshirishda texnik xizmat ko'rsatish standartlariga rioya etilishini nazorat qiluvchi yapon mutaxassislari ko'magidan foydalaniladi.

### **3.2 Eksport bozorlaridagi faoliyati.**

**“Uzavto Motors” AJ** 2020 yil mart oyidan boshlab avtomobillar “CHEVROLET” brendi ostida MDH mamlakatlari va Afrika davlatlariga eksport qilinmoqda. Hozirgi kunda hamma horijiy dilerlik tarmoqlar “CHEVROLET” tarmog'iga o'tdi.

Mahsulot tannarxini qisqartirishni amalga oshirish va bu orqali eksport narxlarini tartibga solish ishlarini davom ettirish rejalashtirilgan. Shu jumladan, “SariarkaAvtoprom” (Qozog'iston)ga yuborilayotgan SKD to'plamlari uchun ham Chevrolet Malibu, Chevrolet Damas/Labo, Chevrolet Cobalt, Chevrolet Tracker, Chevrolet Tahoe, Chevrolet Traverse, Chevrolet Equinox SKD to'plamlari shaklida eksport qilinishi davom ettirish rejalashtirilgan.

2023 yilda “SariarkaAvtoprom” (Qozog'iston)ga yangi Onix rusumidagi avtomobil CKD uslubida ishlab chiqarish rejalashtirilgan.

OOO “Azermash CP” (Ozarbayjon Respublikasi) ishlab chikarish maydonlarida SKD to‘plamlari shaklida eksport qilinayotgan Chevrolet Cobalt, Chevrolet Damas/Labo, Chevrolet Malibu, Chevrolet Tracker, Chevrolet Lacetti, Chevrolet Equinox, Chevrolet Tahoe, Chevrolet Traverse avtomobillari bilan bir qatorda Chevrolet Onix avtomobilini yigish va bozorida sotish rejalashtirilgan.

Yangi eksport bozorlarini ochish bo‘yicha olib borilgan ishlar natijasida, joriy 2022 yilda Livan davlatidagi IMPEX korxonasi bilan xamkorlik yo‘lga qo‘yildi. Natijada ushbu davlatga Spark avtomobillarini eksport qilish yo‘lga qo‘yildi. Xamda, ushbu davlatga Cobalt avtomobilini eksport qilish istiqbollari o‘rganib chiqildi. Bundan tashqari Yaqin sharq va Afrika davlatlariga eksportini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha GM korporatsiyasi va mintaqadagi maxalliy korxonalar bilan muzokaralar olib borildi. 2023 yilda yangi rusumdagi avtomobillarni Livan, Yaqin sharq va Afrika davlatlariga eksportini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ishlar olib borilishi rejalashtirilgan.

Bozorlarning rivojlanish tendensiyalarini o‘rganish va mahalliyashtirish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar va butlovchi qismlar ham sotish hajmini ko‘paytirish maqsadida xalqaro avtomobil ko‘rgazmalari va taqdimotlarida ishtirok etish rejalashtirilgan.

Sotishdan keyingi servis xizmatlarini amalga oshirish maqsadida tashqi bozorlardagi distribyutor korxonalariga ehtiyot qismlarni yetkazib berish ishlari davom ettiriladi.

“SamAvto” MCHJ QK 2023 yilda korxonada ishlab chikariladigan yuk avtomobillarining shassilari va SAZ HD50 avtobus komponentlarini OOO “Azermash Park” maydonida ishlab chikarish uchun eksport qilish rejalashtirilmoqda.

2023 yilda tarmoq sanoat korxonalarini xorijiy avtomobil ishlab chiqaruvchilarning konveyerlariga avtomobil qismlarini eksport qilishni rejalashtirmoqda, jumladan:

“UzChasis” QQ tomonidan Rossiyaning “AvtoVAZ” korxonasi bilan hamkorlik doirasida Granta modeli uchun avtomobil faralari va yoritish moslamalarini eksport qilish ishlari davom ettirilmoqda. Bundan tashqari, joriy yilda “PCMA Rus” MCHJ ga Berlingo modeli uchun old fara, yoritish moslamalarini eksport qilishni boshlash rejalashtirilgan.

“UzSungwoo” QQ tomonidan Peugeot Partner, Citroen Berlingo avtomobillari uchun “PCMA Rus”, Damas avtomobili uchun “Sungwoo Hi-Tech” (Koreya), Shevrolet Blazer uchun “Sungwoo Hi-Tech”ga (Meksika) kichik shtamplangan payvandlangan qismlarni eksporti rejalashtirilmoqda.

#### **IV. Ko‘rsatkichlar.**

“O‘zavtosanoat” AJning 2023 yil uchun maqsadli prognoz ko‘rsatkichlari hamda o‘shish sur‘atlari parametrlari 3 ilovada taqdim etilgan.



## **Ishlab chiqarish rejasi.**

2023 yilda yengil avtomobillar ishlab chiqarish hajmini 400 ming donaga (o'sish sur'ati 2022 yilga nisbatan 122,1 foiz) yetkazish kutilmoqda.

Shu bilan birga, mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish yo'nalishida tarmoq korxonalarining mavjud quvvatlaridan foydalanish darajasini oshirish (yengil avtomobillar va avtomobillar uchun butlovchi qismlar) ishlari amalga oshirilmoqda hamda yangi birlashgan global platformasiga "GEM" o'tish orqali yangi turdagi Oniks avtomobil modeli ishlab chiqarilishi joriy yilning fevral oyidan boshlangan.

Chirchiq shahrida qishloq xo'jaligi mashinasozligi klasterini to'liq ishga tushirib, 828,5 mlrd so'mlik 6 500 dona yangi zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikalarini ishlab chiqarish rejalashtirilgan.

Andijon viloyatida tashkil etilgan maxsus sanoat zonasida "Zamonaviy quyuv ishlab chikarishini tashkil qilish va avtomobil cho'yan detallariga mexanik ishlov berishni o'zlashtirish" investitsiya loyihasini ishga tushirib, qishloq xo'jaligi mashinasozligi uchun butlovchi qismlarni ishlab chiqarilish rejalashtirilgan.

Buning hisobiga 2023 yil yakunida tarmoq va qishloq xo'jaligi mashinasozligi korxonalarining sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 62 187,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022 yilga nisbatan o'sish sur'ati 130,8 foizga etishi kutilmoqda.

## **Investitsiya faoliyati.**

2023-2024 yillarga mo'ljallangan Investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlariga muvofiq jamiyat tarmoq korxonalari tomonidan 2021-2024 yillarda qiymati 918,6 million dollarga teng bo'lgan 7 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish ko'zda tutilgan. 2023 yilda ushbu loyihalar doirasida 115,0 mln. dollar o'zlashtirilishi ko'zda tutilgan, jumladan:

1. "UZAuto Motors Powertrain" AJ da yangi avtomobil modellari uchun dvigatelning yangi turini o'zlashtirish. Loyihada yangi ishlab chiqarilgan avtomobillar uchun yangi dvigatellarni ishlab chiqarishni nazarda tutilgan.

2. "GEM modellarining yoritish chiroqlarini ishlab chiqarish" loyihasini amalga oshirish.

3. "Yangi avtomobil modellarini ishlab chiqarishni tashkil etish". Loyiha "GEM"ning yangi birlashgan global platformasiga o'tish orqali "Uzauto Motors" AJ modellar qatorini yangilashni nazarda tutadi, shu asosda "B" turdagi (sedan) va "SUV B" (ixcham crossover) avtomobillarining 2 ta yangi modellarini o'zlashtirish rejalashtirilgan.

4. Yangi energiya manbaalarida xarakatlanuvchi avtomobillarni ishlab chiqarishni tashkil etish.

5. "Yangi tashkil etiladigan qishloq xo'jaligi klasteri".



6. “Asaka City” ko‘p funksional turar-joy majmuasini qurish.

7. Zamonaviy quyuv ishlab chiqarishini tashkil qilish va avtomobillar cho‘yan detallariga mexanik ishlov berishni o‘zlashtirish.


Shu bilan birga, 2023 yil uchun “O‘zavtosanoat” AJ yirik sanoat korxonalarini mahsulotlarining ishlab chiqarish harajatlarini qisqartirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi. Bunga ko‘ra, sanoat korxonalarining ishlab chiqarish xarajatlarini jami 1 260,5 mlrd. so‘mga (2,4 foiz) qisqartirish rejalashtirilgan.

Rentabellik darajasi 3,9 foizni tashkil etishi kutilmoqda.


#### **V. Samaradorlik ko‘rsatkichlari.**

“O‘zavtosanoat” AJ korpopativ boshqaruvni samarali tashkil etish, Davlat ishtirokidagi korxonalar ijro etuvchi organi faoliyati samaradorligini baholash maqsadida jamiyat tomonidan 2023 yil uchun samaradorlik ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan bo‘lib, 4 ilovada taqdim etilgan.

"O'zavtosanoat" aksiyadorlik jamiyatining tashkiliy tuzilmasi



**“O‘zavtosanoat” AJ  
Tashkiliy tuzilmasi**



**"O'zavtosanoat" AJning 2023 yil uchun maqsadli prognoz ko'rsatkichlari hamda o'sish sur'atlari parametrlari**

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2022 yil				2023 yil prognoz	O'sish sur'ati, %
			prognoz	amalda	bajarilishi, %	o'sish sur'ati, %		
1	<b>Mahsulot ishlab chiqarish hajmlari</b>	<b>mlrd so'm</b>	<b>46 253,7</b>	<b>49 834,3</b>	<b>107,7</b>	<b>144,4</b>	<b>62 187,7</b>	<b>130,8</b>
2	<b>Asosiy nomenklatura:</b>							
	- yengil avtomobillar	dona	325 000	327 639	100,8	139,0	400 000	122,1
	- avtobuslar *	dona	1 514	1 357	89,6	135,4	918	77,1
	- yuk avtomobillari *	dona	3 830	4 094	106,9	91,8	3 172	105,7
3	<b>Investitsiyalarni o'zlashtirish</b>	<b>mln doll</b>	<b>157,6</b>	<b>199,3</b>	<b>126,5</b>	<b>x</b>	<b>115,0</b>	<b>x</b>
	loyihalar soni	soni	5	5	100,0	x	7	x
4	<b>Yangi ish o'rinlar yaratish</b>	<b>soni</b>	<b>1 450</b>	<b>4 186</b>	<b>2,9 b.</b>	<b>2,6 b.</b>	<b>2 000</b>	<b>47,8</b>

**Izoh:**

1. \* O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 18 martdagi "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini yanada qisqartirish va xususiylashtirishni oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi"

168-sonli qaroriga muvofiq tarmoq tarkibidagi 17 ta korxonalarni ustav kapitalidagi ulushlari O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tasarrufiga o'tkazildi. Shu sababli mazkur korxonalar, jumladan "Uz Truck & Bus Motors" MCHJ QK va "Uzavto-Trailer" MCHJ joriy yil yanvar oyida tarmoq

2. Tarmoqning parametrlarida qishloq xo'jaligi mashinasozlik korxonalarining ko'rsatkichlari ham aks ettirilgan;

3. "Uzauto Rubber" MCHJ va "Auto Spring" MCHJ korxonalari 2023 yil 1 yanvardan tarmoq tarkibiga kiritilgan.

**"O'zavtosanoat" AJning 2023 yil uchun asosiy samaradorlik ko'rsatkichlar  
REJASI**

№	Ko'rsatkichlar nomi	I chorak					I yarim yillik					9 oylik					2023 yil				
		ko'rsatkich hajmi	reja	amalda	baj, %	KPIĐ	ko'rsatkich hajmi	reja	amalda	baj, %	KPIĐ	ko'rsatkich hajmi	reja	amalda	baj, %	KPIĐ	ko'rsatkich hajmi	reja	amalda	baj, %	KPIĐ
	A	B	C	D	E	F=ExB/100	B	C	D	E	F=ExB/100	B	C	D	E	F=ExB/100	B	C	D	E	F=ExB/100
<b>O'rnatilgan:</b>																					
1.	Sof foyda rejasini bajarish (mln.so'm)	25	27 275				25	16 985				20	23 431				20	32 687			
2.	Aktivlar rentabelligi (foiz)	25	0,006				25	0,003				20	0,005				20	0,006			
3.	Qoplash koeffitsiyenti (to'lov qobiliyati)	25	9,501				20	8,623				20	8,703				20	8,726			
4.	Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti	25	24,760				20	24,801				20	24,716				20	24,740			
5.	Dividend to'lovlari rejasini bajarish (mln.so'm)											10	217 754				10	217 754			
6.	Aksiyadorlarning investitsiyalari rentabelligi						10	0,009				10	0,013				10	0,018			
	<b>Jami</b>	<b>100,0</b>					<b>100,0</b>					<b>100,0</b>					<b>100,0</b>				